



KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV VA TALABALARDA KOMPLEKS MUAMMOLARNI YECHISH KOMPETENSIYASINING TARKIBIY QISMLARI

Temirova Yulduz Otanazar qizi

Buxoro davlat pedagogika instituti magistranti

Gulova Azizaxon Ma'ruf qizi

Buxoro davlat pedagogika instituti magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18092162>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 25-dekabr 2025 yil

Ma'qullandi: 28-dekabr 2025 yil

Nashr qilindi: 30-dekabr 2025 yil

KEYWORDS

kompetentlik, baholash,
ma'lumot, o'qituvchi,
o'quvchilar, munosabat,
shaxsiy, amaliy, ijtimoiy,
tashabbuskor

ABSTRACT

Maqolada kompetensiyaviy yondashuvlarga asoslangan ta'limning bir qator jihatlari ko'rib o'tilgan. Xususan kasbiy, amaliy kompetentlik turlari va ularning rivojlanish bosqichlari haqida fikr yuritilgan..

Kompetensiya va kompleks muammolarni yechish kompetensiyasi tushunchalarining zamonaviy pedagogik talqini. Bugungi kunda dunyo ta'limini yangilashning asosiy yo'nalishi ta'lim jarayonida faoliyatli yondashuv orqali dunyoni, hayotni, kasbiy faoliyatni yaxlit tizimli ko'ra olish, unda tizimli faoliyat ko'rsatish, yangi yangi muammo va topshiriqlarni bajara olishni shakllantirishdan iboratdir. Muammoni oqilona yechishga yondashuv, birinchi navbatda insonda fikrlash qobiliyatini shakllantirish va rivojlantirishga yo'naltirilgan. Ayni damda ta'limni kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etish, o'qituvchi hamda talabalarning kompetensiyalarini shakllantirish va muntazam tarzda rivojlantirib borish pedagogikaning dolzarb masalalariga kiradi. Pedagog bu jamiyatni tarbiyalovchi unda zamon talabiga mos bo'lgan barcha ko'nikmalar mujassam bo'lishi kerak.

Bo'lajak o'qituvchilarda raqamli jamiyatda faoliyat olib borishi va o'z sohasiga oid bilimlarni mustaqil egallashi, o'sib kelayotgan avlodni zamonaviy texnologiyalardan va ta'lim metodlaridan foydalangan holda o'qita olishi uchun ularda ta'limga kompetensiyaviy yondoshuv bo'lishi. Ushbu yondoshuv talabi bo'lgan raqamli kompetentlikka ega bo'lishlari zarur.

Pedagogik kompetensiya, o'quvchilarning muvaffaqiyatini oshirish, doimiy o'rganishlar va intilishlarni rag'batlantirish jarayoni qiziqarli va samarali tashkil etish uchun jamoa va kirishuvchi o'rganish muhitini yaratish uchun ahamiyatga ega. Ushbu ko'nikmalar o'qituvchining nafaqat bilimli, balki ta'lim jarayonini samarali boshqara oladigan, o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishiga ko'maklasha oladigan malakali mutaxassis bo'lib yetishishini ta'minlashdir.

Zamonaviy ta'lim tizimida inson kapitalini shakllantirish, o'quvchilarni mustaqil fikrlaydigan, ijodkor va amaliyotda

bilimlarini qo'llay oladigan shaxslar sifatida tarbiyalash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Kompetensiyaviy yondashuv – bu o'quvchining o'rganilgan bilimlarni amaliy faoliyatda, muammoli vaziyatlarda qo'llay olish darajasini aniqlovchi yondashuvdir. Mazkur yondashuvda baholash tizimi o'quvchining individual rivojlanish dinamikasini, shaxsiy salohiyatini va ijodiy fikrlash qobiliyatini har tomonlama o'lchashni nazarda tutadi

Kompetensiya – ma'lum bir sohada samarali faoliyat olib borish uchun zarur bo'lgan mutaxassisning professional ilmiy tayyorgarligiga qo'yilgan talabdir. Kompetensiya (lotincha “competo” so'zidan olingan bo'lib, “erishaman, muvofiqman, mos kelaman” ma'nolarini beradi) — kishi egallagan muayyan bilim, ko'nikma, malakalar kompleksini anglatadi. Kompetensiya tushunchasi 1960-yillarning oxiri va 1970-yillarning boshlaridan keng qo'llanila boshlandi.

Kompleks muammolarni yechish kompetensiyasining o'ziga xos tarkibiy elementlari mavjud.

1. Muammoni aniqlash-bu bosqichda talaba yoki tadqiqotchi vaziyatni tushunadi va muammoning mavjudligini sezadi uning asosiy sabab va oqibatlarini aniqlaydi. Muammoning chegaralari, dolzarbligi va yechimga ta'sir qiluvchi omillarni belgilaydi. Avvalambor natijaga erishish uchun muammo aniq, tushunarli va to'g'ri qo'yilishi kerak.

2. Ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilish bu- zarur bo'lgan ma'lumotlar, faktlar, statistikalar, ilmiy manbalar yig'iladi. Ma'lumotlar ishonchligi, dolzarbligi va muammoga aloqadorligi baholanadi. Olingan ma'lumotlar tahlil qilinadi: taqqoslanadi, guruhlanadi, sabab-oqibat munosabatlari aniqlanadi. Natijada: Muammoni yechish uchun asos bo'ladigan tahliliy baza shakllanadi.

3. Yechim variantlarini ishlab chiqish bu jarayonda: Muammoning turli tomonlari hisobga olingan holda bir nechta yechim yo'llari ishlab chiqiladi. Kreativ, mantiqiy va innovatsion g'oyalar ilgari suriladi. Har bir variantning afzalliklari va xavflari tahlil qilinadi. Natijada: Bir nechta amaliy va asosli yechim variantlari shakllanadi.

4. Qaror qabul qilish bu bosqichda: Tanlangan yechim variantlari orasidan eng maqbul, samarali va xavfsiz variant tanlanadi. Qarorning qisqa va uzoq muddatli oqibatlari baholanadi. Qaror qabul qilishda dalillar va ma'lumotlarga tayaniladi. Natijada: Muammoni hal qilish bo'yicha asosli, mantiqiy qaror qabul qilinadi.

5. Yechimni amalga oshirish va baholash bunda-qabul qilingan qaror asosida amaliy harakatlar bajariladi. Jarayon monitoring qilinadi, zarur bo'lsa tuzatishlar kiritiladi. Natija dastlabki maqsadlar bilan solishtirilib, samaradorlik baholanadi. Olingan tajriba kelajakdagi vaziyatlarda qo'llanadi. Natija: Yechimning samaradorligi aniqlanadi va refleksiya amalga oshiriladi.

Shuni unutmaslik keraki, bir muammoni yechishni o'rgandingizmi demak, sizda muammolarni hal qilish ko'nikmasi mavjud. Bilib qo'ying Muammolar sizdan kuchli emas. Muammolarni yechish uchun muhim tavsiyalar: Inson hayoti davomida turli-tuman muammolarga duch keladi. Ba'zilarini o'z tajribasiga tayanib, ba'zilarini esa kimlarningdur maslahati bilan hal etadi. Ammo shunday paytlar bo'ladiki, muammoni yechishning hech qanday yo'li topilmaydi. Biror muammoga duch kelganda qanday yo'l tutish kerak? Birinchi navbatda, vaxima qilmaslik, his-hayajonga berilmaslik va vaziyatni tushunishga harakat qilish lozim. Shuni yodda tutish zarurki, ertaning muammolari bugunning hal etilmagan muammolaridan kelib chiqadi.

Biologiya sohasida mutaxassislar uchun shakllantirilishi lozim bo'lgan asosiy kompetensiyalar.

Kompleks muammolarni yechish kompetensiyasi tizimli fikrlash, tanqidiy tahlil, kreativ yondashuv va asosli qaror qabul qilish ko'nikmalarini o'z ichiga oladi. Bu kompetensiya zamonaviy ta'limning asosiy maqsadlaridan biri bo'lib, o'quvchilarni real hayotiy vaziyatlarga tayyorlaydi.

Biologiya sohasida mutaxassislar uchun asosiy kompetensiyalar

1. Tanqidiy fikrlash kompetensiyasi -Biologiyada tanqidiy fikrlash muhim, chunki ilmiy jarayon doimiy tekshiruvni, dalillarga tayanishni talab qiladi.

Buning mazmun mohiyati-Biologik ma'lumotlarni faktlar asosida baholash. Gipotezalarni tahlil qilish, ilmiy xatolarni aniqlash. Tajriba natijalarini real ilmiy mezonlar bo'yicha tekshirish. Ilmiy maqolalar, ma'lumotlar va tadqiqotlar dalillarini solishtirish. Biologiyada xulosa chiqarish faqat kuzatuvga emas, dalillarning ilmiy asoslanganligi muhim.

2. Tahliliy qobiliyat (Analitik kompetensiya) Biolog mutaxassislar katta hajmdagi ma'lumotlar, tajriba natijalari va statistikani qayta ishlay olishi zarur. Bundan ko'rinib turibiki -Biologik jarayonlar o'rtasidagi sabab-oqibat bog'liqliklarini aniqlash. Ma'lumotlarni matematik, statistik va grafik usullarda tahlil qilish. Biologik modellar, sxemalar va jarayonlarni tizimli tushuntirish. Qolaversa diagnostik va laboratoriya ma'lumotlarini tahlil qilish. Yaxshi tahliliy fikrlovchi mutaxassis aniq diagnostika, ishonchli ilmiy xulosa va to'g'ri strategiya ishlab chiqadi.

3. Hamkorlik (kooperativ kompetensiya) Biologiya sohasi ko'p hollarda jamoaviy tadqiqot va ko'p yo'nalishli hamkorlikni talab qiladi.

Laboratoriya va ilmiy tadqiqot guruhlarini bilan samarali ishlash. Mas'uliyatni bo'lishish va vazifalarni taqsimlash. Turli mutaxassislik vakillari (genetika, ekologiya, tibbiyot, biotexnologiya) bilan hamkorlikda ishlash. Ilmiy loyihalarda kommunikativ ko'nikmalarni qo'llash. Ko'plab biologik kashfiyotlar aynan jamoaviy ilmiy faoliyat natijasida yaratiladi.

4. Ijodkorlik (kreativ kompetensiya)-Biologiyada yangicha yondashuv, innovatsiya va tajribalarni to'g'ri loyihalash juda muhim. Yangi tajriba metodlarini ishlab chiqish. Muammolarga noodatiy, kreativ yechimlar topish. Biotexnologik va ekologik muammolarga innovatsion yondashuv. Biologik modellashtirishda ijodiy fikrlashni qo'llash. Yangi dori vositalari, juda muhimdir. genetik texnologiyalar, ekologik yechimlar — barchasi ijodkor ilmiy tafakkur natijasidir.

5. Axborot bilan ishlash kompetensiyasi-Ilmiy manbalarni topish, tahlil qilish va to'g'ri foydalanish. Elektron bazalar: PubMed, ScienceDirect, Scopus va boshqalar bilan ishlay olish. Biologik dasturlar, simulyatsiya tizimlari, bioinformatika vositalaridan foydalanish.

6. Raqamli (digital) kompetensiya Laboratoriya qurilmalari bilan ishlash. Biostatistika va ma'lumotlarni tahlil qilish dasturlari (R, SPSS, Python) bilan ishlash. Onlayn laboratoriyalar va simulyatsiya platformalaridan foydalanish.

7. Ilmiy nutq va kommunikatsiya kompetensiyasi-Ilmiy hisobot, maqola, prezentatsiya tayyorlash. Ilmiy dalillarni aniq va ravon ifodalash. Auditoriya oldida biologik jarayonlarni tushuntirish.

8. Ekologik va bioetika kompetensiyasi-Ekologik xavfsizlik talablariga rioya qilish. Hayvonlar va o'simliklar bilan ishlashda etik me'yorlarga amal qilish. Biotexnologiya va gen muhandisligi bilan bog'liq etika masalalarini tushunish.

Baholash

Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida ta'lim natijalarini faqat bilim hajmi orqali emas, balki o'quvchining kompetensiyalarini aniqlash orqali baholash zaruriyati ortib bormoqda. Kompetensiyaga asoslangan yondashuvda mezonga asoslangan baholash muhim o'rin tutadi. Bu yondashuvda o'quvchining natijasi boshqa o'quvchilar bilan emas, balki belgilangan standart va mezonlar bilan solishtiriladi.

Shu bois, kompetensiyaga asoslangan baholash vositalarini to'g'ri tanlash va metodik asosda qo'llash ta'lim sifatini oshirishda muhim o'rin tutadi. Portfoliolar, loyihaviy ishlar, rubrikalar, kuzatuv jadvallari, o'z-o'zini baholash hamda raqamli baholash tizimlari – o'quvchilarning faol ishtirokini rag'batlantiruvchi, ularning o'z o'sish jarayonini anglashiga imkon beruvchi vositalar hisoblanadi.

Bu vositalarning o'quv jarayoniga joriy etilishi natijasida baholash jarayoni shaffof, tahliliy va shaxsga yo'naltirilgan xususiyat kasb etadi. Shuningdek, o'z-o'zini baholash va refleksiya usullari o'quvchining o'z o'rganish jarayoniga faol munosabatini shakllantirishda samarali vosita hisoblanadi. Kompetensiyaga asoslangan yondashuvda baholash faqat o'quvchining bilim darajasini aniqlash emas, balki uning amaliy faoliyat, ijodkorlik, mustaqil fikrlash va muammolarni hal etish qobiliyatini o'lchashga qaratiladi. Shu sababli baholash vositalari ham zamonaviy, interaktiv va o'quvchini faol ishtirok etishga undaydigan shakllarda bo'lishi lozim.

Quyida ta'limda eng ko'p qo'llaniladigan kompetensiyaga asoslangan baholash vositalari haqida batafsil to'xtalamiz. An'anaviy baholashda asosiy e'tibor test yoki yozma ishlar orqali o'quvchining faktik bilimlarini o'lchashga qaratilgan. Kompetensiyaga asoslangan baholash esa, o'quvchining bilimni amalda qo'llay olish qobiliyatini baholaydi.

Baholash yondashuvlari quyidagi turlarga bo'linadi:

- diagnostik baholash – o'quv jarayonining boshida o'quvchining tayyorgarlik
- darajasini aniqlaydi;
- formativ (jarayonli) baholash – o'qish jarayonida o'quvchi rivojlanishini
- kuzatish va unga teskari aloqa berishni ta'minlaydi;
- summativ (yakuniy) baholash – o'quv davri oxirida o'quv natijalarini umumlashtiradi.

Muxtasar qilib aytganda, bo'lajak o'qituvchilar kasbiy bilimdonligi va qobiliyati mezonlariga quyidagilar kiradi: ijtimoiy, uslubiy va ixtisoslik bilimdonligi hamda bilish, tushuntira olish, kuzatuvchanlik, nutq, tashkilotchilik, obro' orttira olish, to'g'ri muomala qila olish, kelajakni ko'ra bilish va diqqatni taqsimlay olish qobiliyatlari.

O'qituvchi o'zini egallab turgan lavozimi darajasida kasbiy kompetentlikka ega ekanligini his etgandagina pedagogik jarayonni muvaffaqiyatli tashkil etishi mumkin. Zotan uni kasbiy bilimdonlik, halollik, rostguylik, izlanuvchanlik, tinimsiz sermahsul mehnat, ijodkorlik va yaratuvchanlik kabi fazilatlar yuksaltiradi. Uning bilimdonligi, faoligi, mehnatkashligi, kamtarligi, ma'naviyati va madaniyati, ma'rifatliligi o'quvchilari, bo'lajak kasb egalarining hurmat-ehtiromiga sazovor etadi.

References:

1. Barakaevich, K. S. (2020). Improvement of Vocational Training of Pupils in Secondary Schools. *International Journal of Psychosocial Rehabilitation*, 24(1).

2. Qoraev, S. (2016). Specific features of interdisciplinary coherence and interoperability. "Education, Science and Innovation," 2 (2), 45-50.
3. Кораев, С. (2016). Фанлараро узвийлик ва узаро алокани таъминлашнинг узига хос хусусиятлари. "Таълим, фан ва инновация", 2(2), 45- 50.
4. Elmurzaeva, N. K., & Qorayev, S. B. (2021). Pedagogical Requirements for the Organization of the Educational Process in Specialized State Educational Institutions. Psychology and Education Journal, 58(1), 1078-1084.
5. Кораев, с. Б. (2020). Профессионал таълимда укув амалиётларини ташкил этишнинг узига хос хусусиятлари. Academic Research in Educational Sciences, 1 (3), 1281-1286.
6. Barakayevich, Q. S., & Baxtiyorovna, A. S. (2021). Xalqaro dastur talabalari asosida innovatsion ta'lim muhitini yaratish. Integration of science, education and practice. scientific-methodical journal, 1(02), 132-137.

